



## BOSHLANG`ICH TA`LIMDA O`QISH SAVODXONLIGIGA O`RGATISH METODIKASI

Sevinch Ulasheva Adham qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand  
davlat universiteti  
4-bosqich talabasi, O`zbekiston

Hazratqulov Mutallib Rashidovich

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand  
davlat universiteti Maktabgacha,  
boshlang`ich ta`lim va texnologiya  
kafedrasi pedagogika fanlari bo'yicha  
falsafa doktori

E-mail: [ulashevasevinch22@gmail.com](mailto:ulashevasevinch22@gmail.com)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O`qish savodxonligiga o`rgatish metodikasi, boshlang`ich sinflarning 1-4-sinflarida o`qib tushunish, tinglab tushunish ko`nikmalarini rivojlantirish borasida fikr yuritilgan. Tinglash qobilyatlarini zamonaviy usullar, yangi metodikalar bilan o`qitish, ta`lim jarayonida foydalayadigan interfaol usullar asosida ta`lim oluvchilarning o`qish fikrlashini rivojlantirishga munosabat bildirilgan.

**Kalit so`zlar:** Boshlang`ish sinf o`quvchisi, tinglab tushunish, o`qib tushunish, uzlusiz ta`lim tizimi, klaster, kompetensiya, audio segmentlar, guruh faoliyati, video segmentlar, shaxslararo faoliyat

**Аннотация:** В данной статье рассматривается методика обучения грамоте чтения, развития навыков понимания прочитанного и понимания на слух в 1-4 классах начальной школы. Выражено обучение навыкам аудирования современными методами, новыми методами, интерактивными методами, используемыми в учебном процессе, отношение к развитию читательского мышления учащихся.

**Ключевые слова:** ученик начальной школы, аудирование, понимание прочитанного, система непрерывного образования, кластер, компетентность, аудиосегменты, групповая деятельность, видеофрагменты, межличностная деятельность.

**Abstract:** This article discusses the methodology of teaching reading literacy, the development of reading comprehension and listening comprehension skills in the 1st-4th grades of elementary grades. Teaching of listening skills with modern methods, new methods, interactive methods used in the educational process, attitude towards the development of students' reading thinking was expressed.

**Key words:** Elementary student, listening comprehension, reading comprehension, continuous education system, cluster, competence, audio segments, group activity, video segments, interpersonal activity.

Hozirgi kunda umumiy o`rta ta`lim maktablarining boshlang`ich sinflarida o`qish savodxonli darslarida to`rtta qobiliyatlar orasida tinglab tushunish ham asosiy o`rin tutadi. Odatda bu sohada tilda gapirish va yozishga asosiy tildan foydalanish omili sifatida qaraladi. Tinglash va o`qish qobiliyatlari esa ikkinchi o'rinda turadi.



Buning bir sababi tinglash qobiliyatini o'zlashtirishning biroz qiyinligi bo'lishi mumkin.

O'qituvchilar o'quvchilariga ravon so'zlashni o'zinigina emas, tinglab tushunishni ham o'rgatishga katta e'tibor bera boshlashdi. O'qish savodxonli darslarini mukammal o'zlashtirish va undan foydalanish uchun mavjud bilimlarni shakllantirish va zarur bo'lgan barcha ma'lumotlarni til retseptiv qobiliyatlardan kelib chiqib o'rganish talab etiladi, ayniqsa tinglash va o'qish qobiliyatlarini. Bu borada o'rganuvchilarga qulaylik yaratish maqsadida o'rganish dasturi tuzilgan. Ushbu dasturning tuzilishiga ko'ra unda hech qanday kirish testlari, natija yoki chiqish hech narsa bo'lmasligi kerak.

Boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida asosiy e'tibor bolalarni to'g'ri, tez (me'yorida), ongli va ifodali o'qish malakalarini egallashlariga qaratiladi. Bugungi kun talabiga aylangan o'qib tushunish malakasini egallash uchun alohida yo'nalishda metodik ishlar tashkil etilmasa, ushbu malaka o'quvchilarda shakllanmay qolaveradi. Tushunish jarayoni murakkab bo'lib, u xotira, xayolot, fikrlash, hissiyot, iroda, qiziqish va boshqa ko'plab aqliy xususiyat va ruhiy holatlarni o'z ichiga oladi. Boshlang'ich sinflarda o'qish savodxonligi o'qitish, o'rgatish yo'llari va vositalari, ona tilini egallash, ya'ni nutqiy kompetensiyalarni o'qish va yozishni, grammatika va imloni o'zlashtirib olish to'g'risidagi bilimlarni o'rgatar ekan, shuningdek, o'quvchida matn ustida mustaqil ishlash, ularni xalqaro baholash dasturlariga tayyorlash, matnni o'qib tushunish malakasini shakllantirishda o'qish darslariga nisbatan o'qish savodxonligi darslarining imkoniyatlari kengroq. Sababi, o'qish savodxonligidarslarida illyustrativ material sifatida matnlar beriladi. Boshlang'ich sinflar uchun darslikdagi har bir mavzu bo'yicha berilgan rasmlar va topshiriqlar o'quvchilarda savollar tug'diradi va idrok qilib g'oyalarini targ'ib etishlariga imkon yaratadi. Ushbu kichik matnlar orqali ishlab, oddiydan murakkabga qarab matn asosida tuzilgan topshiriqlarni bajargan o'quvchilarda murakkabroq matnlar bilan ishslash uchun adaptatsiya hosil bo'ladi. Har bir tilning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda alohida yondashuv asosida metodikaga zarurat sezilishi, tabiiydir. O'qib tushunish ko'nikmasi o'quvchilarning psixik jarayonlari barqarorligiga, ularning yosh xususiyatlari bog'liq bo'lib, matnni o'qib, to'liq tushunish turli xil mashqlar va mashg'ulotlar davomida rivojlantirishni talab etadi. O'quvchilarning o'qish ko'nikmalarini shakllantirish zamonaviy ta'limning eng muhim vazifalaridan biriga aylangan bugungi kunda mazkur mavzuda alohida yo'nalishda ilmiy tadqiqot olib borish zarurati mavjud. O'quvchilarni nutqiy vaziyatlarga tayyorlaymiz. O'qish savodxonligida o'qitishda o'quvchilarda o'qish,



yozish, fikrini erkin ifodalash hamda tinglab tushunish kabi muhim ko'nikmalarni shakllantirish barobarida, ularni hayotda duch keladigan nutqiy vaziyatlarga ham tayyorlaydi. Bolalarning fikr yurita olishlariga erishish uchun ta'lim jarayonida o'qituvchi tomonidan ularga dars davomida qulay muhit yaratib berilishi va imkonyatlar eshigi ochib berilishi lozim. Bu borada o'qituvchilarimizga albatta darsliklar eng birinchi yordamchi o'quv vositasi hisoblanadi. Quyida darsliklaridagi bir nechta mavzu va topshiriqlar bo'yicha klaster texnologiyasini yaratishni ko'rib chiqamiz. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-sinfi uchun yaratilgan "Alifbo" darsligidagi mavzular asodida berilgan rasmi topshiriqlar, berilgan savollar bo'yicha o'qituvchi o'quvchilarga individual va guruh bo'yicha klaster texnologiyasi yaratishga topshiriqlar berib ularning darslarga qiziqishlarini yanada oshirishi mumkin.

1. Sabzavotlar nomini ayting: Bunda o'quvchi rasmlarga qarab o'z-o'zidan beixtiyor javob beradilar.
2. Sabzavotlardan nimalar tayyorlanadi?
3. Sabzavotlarning odam sog'ligiga qanday foydasi bor?
4. Rasmlardagi har bir sabzavotlarning rangini ayting.
5. Har bir sabzavotni aytganimizda nutqimizda nechta tovushdan foydalanyapmiz? kabi savol va topshiriqlar bilan o'quvchilarga klaster yasashga sharoit yaratamiz.

Jarayonda barcha o'quvchilar ishtirok etadilar. Uning maqsadi berilgan topshiriqlar bo'yicha umumiy bilimlarni takrorlash, yuzaga chiqarish, mavzu bo'yicha har xil savollar berish. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning o'qish savodxonligi darsliklaridagi mavzu va topshiriqlarni bajarishda klaster texnologiyasidan foydalanishning ahamiyatliligi har bir o'quvchining erkin rivojlanishi uchun sharoit yaratishdadir. Bolalarni o'qitish jarayonida klasterdan foydalanish tizimli fikrlashni, materialni ijodiy qayta ishlash qobiliyatini rivojlantirishga hissa qo'shib xizmat qiladi, bolalarni nafaqat darsdagi ma'lumotlarni balki o'z fikrlarini tahlil qilishga o'rgatadi. Xususan, taklif etilayotgan yangi malaka talablariga ko'ra, o'quvchi yoshidan kelib chiqib, tarixiy, ijtimoiy, ilm-fan va texnikaviy mavzularda erkin so'zlasha olishi, bu mavzudagi matnlarni o'qib tushunishi va tuza olishi zarur. Bu ularga hayotda duch keladigan vaziyatlar, kasblarni egallash uchun zarur savodxonlik ko'nikmalari va tushunchalarni muktabdayoq egallash va keyinchalik samarali foydalanish imkonini beradi.

Tinglash ko'nikmalarini o'rgatishning zamонавиy samarали usullari interaktiv mashqlardan multimedia resurslarigacha o'z ichiga oladi. Tinglash qobiliyati eng yaxshi o'rganishi mumkin bo'lган qobiliyat sanaladi. Chunki o'rganishga birozgina



ko'proq e'tibor qaratilsa u oddiy va qiziqarli tadbirlar orqali yaxshilandi va yakunida yaxshi natijalarga olib keladi. Bu holatda siz kichik yoki katta o`quvchilar guruhlari bilan ishlashingiz muhim emas, siz o'zingizni rivojlantirish uchun quyidagi usullardan birini qo'llasangiz bas.

Boshlang`ich sinflarga yaxshi tinglab tushunishni o'rgatishning o'ziga xos usullari:

#### *Shaxslararo faoliyat*

Shaxslararo faoliyat o`quvchilarda kuchli tinglashni rivojlantirishning eng samarali usullaridan biridur. Ushbu metodga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

1. Darslikda keltirilgan mavzular yuzasidan rol ijro etish
2. O`quvchilar o`rtasida soxta intervylular
3. O`tilgan mavzular bo`yicha dialoglar
4. Qayta hikoya qilish va boshqalar

#### *Guruh faoliyati*

Katta guruh faoliyati ham o`quvchilarga o`zaro muloqotda tinglab tushunishni rivojlantirishlariga yordam beradi. O`quvchilarga tinglash qobiliyatini o'rgatishning foydali usuliga bundan tashqari oddiy guruh faoliyati ham yaxshi misol bo'la oladi. Birinchi mashg'ulot uchun o`quvchilar besh yoki undan ko'p guruhlarga bo'linadi va ularga bir qiziqish yoki kamida ikkita boshqa sevimli mashg'ulotni o'rganishni buyurishingiz kerak. Bunda o`quvchilarga aniqlovchi savollar berish kerak. Faoliyat davomida va siz ularga eslatma olishlariga ruxsat berishingiz mumkin, chunki bu foydalidir. Faoliyatning ikkinchi qismi - bu o`quvchilarga katta guruhdada o'tirishga ruxsat berishdur. Masalan ular o'zлari bilan yuzma-yuz kelgan guruh a'zosining ismi va ularning qiziqish hobbilarini haqida muloqot qilishsin. Bu ikki faoliyat ham tinglashning samarali o'sishiga olib keladi.

#### *Audio segmentlar*

Shuningdek, siz darsdan tashqari bo`sh vaqtlarida o`quvchilarga audio segmentlar orqali tinglash ko'nikmalarini o'rgatishingiz mumkin masalan:

1. radio dasturlari
2. o'quv ma'ruzalari
3. onlayn podkastlar va boshqa audio xabarlar bilan.

O'quvchilar bilan sinfda va keyin interaktiv tinglash dasturlarini qo'llash kerak. Bunda ularga mashqni mustaqil ravishda bajarishlariga sharoit yaratish kerak. O'qituvchilar o`quvchilarni qiziqtirish uchun qiziqarli xabarlardan foydalanish mumkin. Ularni radio yoki televizordan olishi mumkin. Xabarlarni ularga yetkazish uchun kompyuterdan ham foydalanish maqsadga muvofiqdir.O'quvchi hamma



so'zlarni tushunishlari shart emas, ammo xabarlarni diqqat bilan tinglashlari va xabar nima haqida ekanligini bilishlari kerak.

#### *Video segmentlar*

Tinglash ko'nikmalarini o'rgatish uchun boshqa eng foydali manba bu video segmentlardir ular:

1. qisqacha eskizlar
2. hujjatli filmlar
3. dramatik yoki komedik materiallar
4. yangiliklar dasturlari
5. intervyu segmentlari bo'lishi mumkin.

**Xulosa** o'rnida shuni aytish kerakki, ushbu maqolada tinglab tushunish hamda o'qib tushunish qobilyatini rivojlantirish uchun bir nechta metodlar va ko'rsatmalar berildi. Tinglash va o'qishni o'rgatish uchun qaysi usuldan foydalangan taqdirda ham, bir nechta asosiy ko'rsatmalarni yodda saqlash zarur. Birinchisidan, o'quvchilardan dastlab katta natijalar kutib yubormaslik chunki hatto eng qobilyatli tinglovchi ham hech qachon dastlabki mashqlardan xabarni to'liq va aniq eslay olmaydi. Ikkinchidan o'quvchilar uchun nafaqat aniq balki ularning imkoniyatlari darajasida savollar yaratish, bu xato qilmaslik uchun juda ham muhim. Uchinchidan, o'quvchilarga o'z yo'nalishlarini, uslublarini topishga yordam berish. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarga dars jarayonida matnni o'qib tushunish va tinglab tushnish orqali paydo bo'ladigan ko'nikmalarning ahamiyatining qay darajada paydo bo'lishi bilan tahlil qilib borilmoqda. Darslikda berilayotgan materiallarning o'quvchilarga qay darajada tushunarli bo'lishi o'quvchining matnga bo'lган munosabatida o'z aksini topadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Husanboyeva Q, Hazratqulov M, Xolsaidov F. Ona tili va o'qish savodxonligiga o'rgatish metodikasi. Darslik. -Toshkent. Innovatsion-ziyo, 2022.252 bet.
2. Ҳусанбоева Қ. Тахлил – адабиётни англаш йўли. Тошкент. “Муҳаррир” нашириёти, 2013. –432 б.
3. Yo'ldoshev Q., Yo'ldosheva M. Badiiy tahlil asoslari.-Toshkent: Kamalak nashriyoti 2016.-464 b.
4. Alavutdinova, N., & Abdurahmonova, M. Ijodiy fikrlash ko 'nikmasini shakllantirish muammolari. O 'ZBEKIST, 87.
5. Aydarova U. B. O'qish savodxonligi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik. –Toshkent. Novda Edutainment. -2023.-80 bet.
6. Atadjanova, M. A. (2021). Animation mythology and its functional nature in the current uzbek prose. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR), 10(2), 70-78.



7. Alavutdinova Ganievna, N. (2015). 20. Asir Özbek Dilbiliminde Morfolojiye Ait Görüşlerin Şekillenmesinde Prof. Eyyüp Gulamov'un Yeri. *Turkish Studies* (Elektronik), 10(12), 1-14.
8. Safarova R va boshqalar "Alifbe" Metodik qo'llanma [Matn]: o'qituvchilar uchun metodik qo'llanma, –Toshkent : Respublika ta'lim markazi, 2021. – 96 b.
9. Qosimova. K., Matjonov. S., G'ulomova. X., Yo'ldosheva. Sh., Sariyev.Sh. "Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent, 2009y.
10. Otajanova, M. (2022). Analysis of Mythologysms in Modern Uzbek Prose. *Anglisticum. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, 11(5), 16-27.
11. Ganievna, N. A. (2015). 20. Asır Özbek Dilbiliminde Morfolojiye Ait Görüşlerin Şekillenmesinde Prof. Eyyüp Gulamov'un Yeri.
12. Yangi O'zbekiston gazetasi 2021-yil 25-sentyabr 192-soni.
13. K.A. Krilova "Chet tili darslarida tinglashni o'rgatish texnikasi. Ingliz tili darslarida tinglashni o`rgatish metodikasi Ingliz tili darslarida tinglashni o`rgatish bosqichlari"
14. Madina Shirova (Uzbekistan, Karshi). Tinglab tushunishni rivojlatiruvchi method va mashqlar.
15. Khodjamkulov, U., Makhmudov, K., & Shofkorov, A. (2020). The Issue of Spiritual and Patriotic Education of Young Generation in the Scientific, Political and Literary Heritage of Central Asian Thinkers. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(05), 6694-6701.